

O‘ZBEKISTON TABIATINING O‘ZIGA HOSLIGI VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH ZARURIYATI

Ibragimov Baxtiyor Adambayevich

“Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi bo‘lim mudiri

Karimova Maqsuda Berdiyevna

“Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy xodimi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonning tabiati, tog‘li va cho‘l mintaqalari haqida, shuningdek, tabiatni muxofaza qilish haqida qisqacha ma’lumot berilgan

Kalit so‘zlar: Rovocho, tog‘ yalpizi, K.Z. Zokirov, Aydarko‘l, Amudaryo, Qizilo‘rda.

THE ROLE OF KHORAZM FORT AND WALLS IN CITY DEFENSE. HISTORY OF “INCHAN-KAL’A” WALLS.

ABSTRACT

This article provides brief information about the nature, mountainous and desert regions of Uzbekistan, as well as about nature conservation.

Keywords: Rovocho, mountain mint, K.Z. Zakirov, Aydarkol, Amudarya, Kyzylorda.

O‘zbekiston hududining katta qismini past tekisliklar egallagan. Eng kattalaridan biri – bu Turon past tekisligidir. Ikki katta Qizilqum va Qoraqum cho‘llari butun mamlakat bo‘ylab bir necha yuz kilometr ga Tyan-Shan etagigacha cho‘zilgan. Cho‘l ayniqsa bahorda go‘zal. Kuchli shamollar qumli barxanlarni saksovul novdalari uzra haydab, bahorda cho‘lni betakror go‘zalikka burkaydi.

O‘zbekiston hududi yer yuzasining g‘arb va shimoli-g‘arbdan janubi-sharqqa va sharqqa tomon ko‘tarila borishi hammamizga ma’lum. Toqqa tomon havo harorati pasayib, yoginlar miqdori ortadi, tuproq o‘simlik qoplami o‘zgaradi. Shuning uchun hami respublikamiz tabiat zonalari janubdan shimolga emas, balki g‘arbdan sharqqa, yani tekislikdan toqqa tomon o‘zgarib, balanlik mintaqalarini hosil qiladi.

Ko‘plab boyliklarni o‘zida mujassam etgan ulug‘vor O‘zbekiston tog‘lari, har yili baland tog‘ cho‘qqilarini zabt etadigan yuzlab sayyohlarni va ekstremal insonlarni o‘ziga jalb etadi. Chiroyli sharsharalar, ko‘p mingli tepaliklar, chang‘i uchish yo‘llari,

tog'oldi yaylovlar, qo'riqxonalar va o'rmon zonalari, kanyonlar va tog' ko'llari, g'orlar hamda qadimiy tsivilizatsiyalarning to'xtab turish joylari – bu mamlakatimizning go'zal tog'li hududlari maqtanishi mumkin bo'lgan narsalarning to'liq ro'yxati emas.

Tog'larning yonbag'irlarida betaga, rovoch, tog' yalpizi kabi o'tlar o'sadi, namatak, zirk, dukcho'p va irg'ay kabi butalar, yuqoriroqda esa o'rmonlar uchraydi. Tog' o'rmonlarida bodom, pista, do'lana, o'rik, olma, olcha, nok, yong'oq kabi mevali daraxtlar o'sadi. Okean sathidan 1400 m dan 25600 m gacha bo'lgan balandliklarda archa uchraydi. Archa yog'ochi mustahkam g'immatbaho daraxt bo'lib uzoq umr ko'radi. Archazorlar-shifobaxsh oromgoxlardir.

O'zbekiston hududidagi balanlik mintaqalarining vujudga kelishi va uning sabablari, u bilan bog'liq bo'lgan qonuniyatlar O'zbekiston Fanlar akademiyasining akkademi K.Z. Zokirov tomonidan ishlab chiqildi. K.Z. Zokirov tavsiya qilgan to'rtta: cho'l, adir, tog' va yaylov mintaqalarining har biri o'ziga xos iqlim, tuproq qoplami, o'simlik va xayvonot dunyosiga ega. Ularning xar birida ro'y beradigan tabiiy geografik jarayonlar ham bir-biridan farq qiladi.

Mo'tabar o'lkamizning sayyohlik imkoniyatlari juda xilma-xil va boy: Ugam-Chotqol milliy bog'i, Amudaryo deltasidagi to'qay o'rmonlar, yaqinda sayyohlar uchun ochilgan sayyoramizda hayotning paydo bo'lishidan dalolat beruvchi Kitob qo'riqxonasi, Orol dengizi yaqinidagi "ekologik ofat" mintaqasi, dashtlar va Qizilqum cho'llari, Nurota tog'lari va Jizzax viloyatidagi Aydarko'l ko'li va tabiatimizning ko'plab boshqa ajoyibotlari. Shu sababli ishlaringizni tugatib mo'tabar O'zbekistonga safaringizni rejalashtiring, mamnun qolishingizga ishonchimiz komil!

Yer yuzasi okean sathidan balandlashgan sari iqlim umuman bir butun tabiatning o'zgarib borishini ulug' allomalar Abu Rayxon Beruniy va Abu Ali Ibn Sinolar X asrdayoq idrok etgan edilar.

Cho'l mintaqasi okean sathidan 400-500 m balanlikkacha bo'lgan joylarni o'z ichiga oladi va O'zbekiston maydonining 70% ini ishg'ol qiladi.

Cho'l iqlimining juda issiq va quruq ekanligi, yog'inlarning juda kam yog'ilishi sizga malum. Yozda yog'in deyarli yog'maydi. Kunduzi havo harorati $+45^{\circ}$, $+50^{\circ}$ daragacha, qum yuzasi esa $+80^{\circ}$ darajagacha qiziydi.

Tabiatni muhofaza qilish avvalo O'zbekiston tabiiy muxitini sof va ko'rkam holda saqlab, qayta tiklash demakdir. Shu sababli O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «O'zbekistonda hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab, yer ust iva yer osti boyliklarini, suv resurslarini, o'simliklar va hayvonot dunyosini qo'riqlash va ulardan ilmiy asosda, oqilona foydalanish, havo va suvni toza saqlash, tabiiy boyliklarni uzluksiz ko'paytirib borishni taminlash va insonning atrof-muhitini yaxshilash uchun zarur choralar ko'riladi», deb ko'rsatilgan.

Lekin hozir respublikamizda tabiatiga insonning tasiri tobora ortib bormoqda. Natijada uning bazi o'lkalarida (Orol bo'yida, Surxon vodiysida, Quyi Amudaryoda) ekologik xolat yomonlashib bormoqda. Havo, suv, tuproq ifloslanib, o'simlik va hayvonlar bazi turlarining soni qirilib bormoqda.

Orol dengizi suv sathining pasayishi sababli uning atrofidagi o'lkalarda (Quyi Amudaryo, Qizilo'rda viloyatlarida) havo har xil tuzlar, changlar, zaxarli kimyoviy moddalar bilan o'ta ifloslangan. Buning natijasida aholining salomatligi yomonlashib, bolalar o'limi ham ortib bormoqda.

Respublika daryo suvlarining zovur suvlari bilan ifloslanishining oldini olish uun ularni iloji boricha daryo, ariq yoki suv omborlariga tashlashga chek qo'yish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: 1999 (қайта тахрири)
2. И.А. Каримов «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида» Т.: 1997.
3. Ўзбекистон Республикасида атроф табиий муҳитни муҳофазаси ва табиий ресурслардан фойдаланишнинг ҳолати тўғрисида. Миллий маъруза. 2006.
4. P. Baratov. Tabiatni muhofaza qilish. Т.: 1991.
5. Sh. Otaboyev, M. Nabiyev. Inson va biosfera. Т.: 1994.
6. Yu. Shodimetov. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. Т.: 1994.
7. A. Yergashev. Umumiy ekologiya. Т.: 2003 yil.
8. Sh.A. Shirinboev, M.G. Safin. Atrof – muhitni muhofaza qilish. Samarqand – 2003 у.